

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Raximov Zokir Toshtemirovichning taqrizi ostida

XALQIMIZNING NOMODDIY MEROSINI ASRAB AVAYLASH VA UNI ZAMONAVIY USULLAR ORQALI KELAJAK AVLODGA YETKAZISH

Aziza Kobilova Tursunovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqola mazmunida nomoddiy madaniy merosni saqlashning zamonaviy usullari va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganish, milliy va xalqaro tajribani o‘rganish, nomoddiy madaniy merosni global miqyosda saqlashga qaratilgan dasturlarni muhokama qilish, raqamlashtirish va arxivlash texnologiyalarining nomoddiy madaniy merosni saqlash va tarqatishdagi rolini tahlil qilish, yosh avlodning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ular orasida madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, nomoddiy madaniy merosning barqaror rivojlanishdagi o‘rni va roli haqida ilmiy-nazariy va amaliy fikrlar almashish, madaniy merosni saqlashda jamiyat va davlat idoralarining hamkorligini kuchaytirish, ularni integratsiyalashgan faoliyatlarini takomillashtirish haqida ilmiy-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: an’anaviy hunarmandchilik, kulolchilik, ganchkorlik, do‘ppido‘zlik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, miniatyura, bilim, ko‘nikma

Ananaviy hunarmandchilik xalqimizning uzoq tarixidan bir nishona hisoblandi. Hunarmandchilikning turlari ko‘p unda ustoz shogird an’analari mujassamlashgan. Chunki qadimdan bir avloddan ikkinchi avlodga me’ros hisoblangan. Kulolchilik otadan o‘g’ilga kashtado‘zlik esa onadan qiziga me’ros bo‘lib kelmoqda. Kashtado‘zlikda yana bir an’ana bo‘lgan. Unda onalar tikkakashtalarini yakunlashmagan. Va uni qizlariga berishgan. Undan ko‘zlangan maqsad qizlarining ziyrakligini oshirish va hunarni davom ettirish edi. Hozirgi kunda ham ustoz shogird an’analari saqlanib qolgan va davom ettirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha qator tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda, ma’lumki ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta’minlash shuningdek, aholini yuqori sifatli hunarmandchilikka bo‘lgan talabini oshirishga zamin yaratadi. Prezidentimiz Shavkat Miroqiyev tomonlaridan joriy yilning 18-maydagi “O’zbekiston Respublikasida hunarmandchilik tarmog’ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-5721 sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon ijrosi doirasida, mamlakatimizda mahalliy hunarmandchilik tarmog’ini tiklash va rivojlantirish shuningdek ishlab chiqarishni kengaytirishiga zamin yaratadi. Xalqimizning boy madaniy va tarixiy an’analalarini to’liq saqlab qolish, milliy hunarmandchilikni xalq badiiy va amaliy sa’natini yanada rivojlantirishimiz, hunarmandchilik faoliyati bilan shug’ullanuvchilarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosida aholi, ayniqsa yoshlar va kam ta’minlangan oilalar bandligini ta’minlash maqsadida Prizidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev farmonlari e’lon qilingan. Qadimshunos va tarixiy olimlarimizning tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, zaminimizda qadimdan turli amaliy hunarmandchilik markazlari vujudga kelgan va asrlar mobaynida shakillanib kelinmoqda.

Hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun ko‘zlangan asosiy maqsad, bugungi kunda aholi xususan yoshlar bandligini taminlash orqali oilaviy faravonlikni oshirish, muhum

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

yo'nalishlari sifatida o'zini namoyon etadi. Hunarmandchilik sohasining yoshlar o'rtasida psixologik va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, yoshlarimizni sabr-bardoshli, bo'lishini taminlaydi. Bundan tashqari hunarmandchilik sohasida yoshlarni yetuk kadrlar qilib tayyorlash mumkunligini anglab yetishimiz zarur. Shu jumladan mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni har tomonlama rivojlantirishimiz va hunarmandlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha islohatlar jadal suratlarda rivojlanmoqda. Milliy hunarmandchiligidan o'zbek xalqining asrlar davomida o'z qadr qimmatini yo'qotmay hozirgi kungacha qo'li gul hunarmandlar tomonidan shug'llanib kelayotgan sohadir. Hunarmandchilik tobora takomillashib borib turli ixtisosliklarga ajralib turgan. Masalan, kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskorlik, binokorlik, uymakorlik, kashtachilik, zargarlik, zardozlik va boshqalarini ko'rsatishimiz mumkin.

Yurtimizda azaldan xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik na'munalari taraqqiy topgan. Kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kandakorlik, sozgarlik kabi xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarining o'ziga xos uslubi va maktablari saqlanib qolgan. Hunarmandchilik an'analarining davom etayotgani bugungi kunda turizm jozibadorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, qadim va navqiron Buxoroga tashrif buyurayotgan minglab xorijlik sayyoohlар tarixiy obidalarimiz bilan bir qatorda, o'zbek milliy hunarmandchilik mahsulotlariga, ularni yaratilish jarayonini o'rganishga katta qiziqish bildirmoqda.

Muzeylarda xalqimizning hunarmandchilik buyumlarning to'planishi, saqlanishi, o'rganilishi va tadqiqot ishlarining olib borilishi asosiy vazifa hisoblanadi. Hunarmandlarimizning o'z hunariga bo'lgan hurmat e'tibori tufayli biz qadryatlarimizni saqlab qolishga erishdik. Ma'lum ma'noda biz bu qadriyatlarni namoyish qilish, chet ellik shu soha ixlosmandlarini jalg eta oladilar. Yurtimizga kelayotgan minglab mehmonlar tarixiy obidalarimiz bilan bir qator, o'zbek milliy hunarmanchilik mahsulotlarini ko'rib ularni yaratilish jarayonini zavq bilan tomosha qilishi qiziqishlarini ortirish hamda milliyligimizni sezdirishimiz tufayli o'z kasbini saqlab hozirgi kunda shu kasbi bilan elga tanilgan ustalar yetishib chiqqan. O'zbek xalqining azaliy qadiriyatlari tizimida farzand tarbiyasi, ayniqsa, uni kasb-u hunar egasi qilib mustaqil hayotga tayyorlash masalalasi xalq pedagogikasining eng muhim vazifalaridan sanalgan. Mana shu vazifaning amaliy usullaridan biri –milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, uni yosh avlodga o'rgatish sanalgan.

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik sharq xalqlarining qadimiyligi qadryati bo'lib u asrlar davomida ma'naviyati, urf-odatlari, orzu-intilishlari o'zida ifodalab kelayotgan san'at hisoblanadi. Uning o'ziga xos milliylik xususiyatlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari ustashogirt an'analarini o'rtasidagi axloq-odob me'zoni, madaniyati, yosh avlodga hunarmandchilik kasbiga mexr-muhabbatini o'stirishga muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan yosh avlodda xalqimizning milliy me'rosiga mehr muhabbatni kuchaytirish maqsadida mактабгача talim tashkilotlaridan tortib oliv ta'lim muassasalarida muzeylar kuni yoki hunarmandchilik bilan shug'llanuvchilar xonodoniga tashriflar tashkil etilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yosh avlodni milliy hunarmandchilik na'munalari va uning ahamiyati, sir asrorlari bilan tanishtirish hamda yangi texnologiyalar asosida bu merosni yanada sayqallashtirishdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich "Turizm asoslari" o'quv qo'llanma T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011-yil 288 bet.

2. M.T.Aliyeva "Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti" darslik T.: TDIU 2007-yil 339 bet.

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

3. M.T.Aliyeva “Mehmonxona menejmenti” darslik T.: TDIU 2007-yil 275 bet